

AUTIZM TASHXISLI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN REABLITATSION USULLAR

Annotatsiya. Maqolada autizm tashxisli bolalar haqida ma'lumot, ularni klinik belgilari va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda muvaffaqiyatli moslashishga qaratilgan amaliy jihatlar hamda olib boriladigan reabilitatsion usullar keltirilgan.

Kalit so`zlar: autizm, muloqot, anomal, integratsiya, nutq terapiyasi, mehnat terapiyasi, sensorli sezgi, ABA-terapiya, bioakustik tuzatish.

МЕТОДЫ РЕАБИЛИТАЦИИ, ПРОВОДИМЫЕ С ДЕТЬМИ С ДИАГНОЗОМ АУТИЗМ

Аннотация. В статье представлены сведения о детях с диагнозом аутизм, практические аспекты, направленные на успешную адаптацию с учетом их клинических симптомов и социально-психологических особенностей, а также методы реабилитации.

Ключевые слова: аутизм, общение, аномалия, интеграция, логопедия, эрготерапия, сенсорное восприятие, ABA-терапия, биоакустическая коррекция.

REABLITATION METHODS CARRIED OUT WITH CHILDREN DIAGNOSED WITH AUTISM

Annotation. The article provides information about children diagnosed with autism, practical aspects aimed at successful adaptation, taking into account their clinical symptoms and socio-psychological characteristics, as well as rehabilitative methods.

Key words: autism, communication, anomaly, integration, speech therapy, occupational therapy, sensory perception, ABA therapy, bioacoustic correction.

Kirish. Hozirgi vaqtida butun dunyoda, jumladan mamlakatimizda autistik dezontogenezni tuzatishga, bunday bolalarning tibbiy, psixologik, aqliy rivojlanishini normallashtirishga qaratilgan turli xil yondashuvlar doirasida faol izlanishlar olib borilmoqda. Autizm sindromli bolalar bilan psixokorreksion va rivojlantirish ishlari olib borish ushbu kasallikning o‘ziga xos xususiyati mavjudligi tufayli qiyinchilik keltirib chiqaradi. Autizm bolaning tashqi dunyo bilan aloqa qilmaslik istagi, asab tizimi va nutqining o‘ziga xos rivojlanishi bilan sog‘lom bolalardan ajralib turadi. Bunday xususiyatlarning mavjudligi bolaning tashqi dunyo bilan hissiy aloqalarini rivojlanmasligiga sabab bo‘ldi. Negativizm, tajovuzkorlik, stereotipik xatti-xarakatlarning mavjudligi ular bilan ishslashni qiyinlashtiradi.[1]

Tadqiqot ishining metodologiyasi. Autizm (grekcha “autos” – “o‘zim” degan so‘z) – bu ruhiyatning o‘ziga xos holati bo‘lib, bemor tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi. U yolg‘izlikni yoqtiradi. Yana bir xil xatti-xarakat va so‘zlarni qayta-qayta takrorlash ham aynan ushbu kasallikka chalingan insonlarga hos xolat. Tibbiyot tarixida XVIII asrning o‘zidayoq autizm spektri buzilgan (garchi bu atama hali qo‘llanilmagan bo‘lsada) insonlarning holati tavsiyi keltirilgan matnlar paydo bo‘la boshlagan. O‘tgan asrlarda faoliyat yuritgan olimlar orasidan fransuz tadqiqotchisi J.M.Itar insonlardagi autizm bilan bog‘liq muammoga birmuncha o‘zgacha yondashib, bu holatni “Aqliy mutizm”, – deb ta’riflaydi. Shu bilan u autizmdagi eng muhim belgilardan biri – aqliy buzilish mavjud bo‘lmagan holatda insonda nutqiy rivojlanmaganlik yoki nutqiy rivojlanishdan orqada qolish kabilarni ajratib ko‘rsatadi. Kasallikka doir “autizm” terminini fanga 1912 yilda E.Bleyler kiritgan.[2]. Autizmnинг sindrom sifatida bolalar psixiatri Leo Kanner tomonidan kiritilgan bo‘lib, bu uning 1943 yilda chop etilgan

- 176 “Affektiv muloqot bilan bog‘liq autistik buzilishlar” nomli maqolasida keltirilgan. Autizmning klinik ko‘rinishlari bola hayotining birinchi yillarida namoyon bo‘ladi. Dastlab muloqatning va atrof-muhitga qiziqishni yo‘qligi bilan namoyon bo‘ladigan ushbu kasallik keyinchalik og‘ir shaklga aylana boshlaydi. Bu esa bolaning aqliy rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi.

Erta bolalik autizmi sindromining klinik belgilari bilish jarayonlaridan ayrim funksiyalar sekin rivojlanadi, boshqalarida esa patologiya kuzatiladi. 1970 yillar davomida autizm etiologiyasini o‘rganish, unga tashxis qo‘yish hamda autistik bolalar bilan ishslash sohasida sezilarli darajada o‘sish kuzatila boshlandi. Bugungi kunda butun dunyoda mazkur sohada tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirda dunyo jamoatchilagini, olimlar va tibbiyot xodimlarini xavotirga solayotgan muammolardan biri bo‘lgan autik spektri buzilgan insonlar soni sezilarli darajada oshib bormoqda. Autizm kasalligi homila ona qornidalik davridayoq uning bosh miyasi rivojlanishida MOSOS oqsili tanqisligi sababli paydo bo‘ladi. Bu xastalikning irsiyat bilan bog‘liqligi hali to‘liq o‘rganilmagan. Amerikalik va fransiyalik olimlar guruhi bosh miya rivojlanishining ilk bosqichlarida hid sezishda ishtirok etadigan o‘zak hujayralarni o‘rganish zarur, degan xulosaga kelishdi. Chunki, burundan osonlik bilan olinadigan biopsiya surtmasi bu hujayralarni o‘rganishda bebafo usul hisoblanadi. Autizm bilan og‘rigan bemorlardagi gen va oqsillarni sog‘lom kishilarnikidan farqlash uchun ham bu usul zarur hisoblanadi. Tadqiqotchilar 11 nafar bemorning 9 nafarida MOSOS oqsilini kodlovchi gen faoliyatini buzilganini kuzatishdi. Bu oqsil yetishmovchiligi bosh miya faoliyatida muhim o‘rin egallaydigan sinapslarning kam hosil bo‘lishi va ko‘p miqdorda anomal (nuqsonli) asab impulsleri rivojlanishiga turtki bo‘lar ekan. [3] Bleylerning fikricha, xasta odam o‘z olamida yashaydi. Fikrashi boshqalarnikiga o‘xshamaydi. Ularning xatti-xarakatlari real voqelik bilan bog‘liq emas. Bemorlarning xarakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o‘rin tutadi. Bu kasallik sindromi o‘g‘il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko‘p uchraydi.

Kasallikning ilk belgilari uch yoshgacha kuzatiladi. Ba’zan klinik belgilar barvaqt aniqlanishi ham mumkin. Bugungi kunda autizmga tashxisini qo‘yish va uni davolash tizimining o‘zi mavjud emas. Buning murakkabligi yana shundaki, autizm hodisasi turli sohalarning o‘zaro hamjihatligini talab etadi. Autizm kasalligi bilan og‘rigan bolalarning abilitatsiyasi hamda integratsiyasi – bu bir qancha chora-tadbirlar majmuasidan iborat bo‘lib, bunda ko‘proq ijtimoiy hamkorlik o‘rnatalishi, ya’ni turli soha mutaxassislarining jalb qilinishi talab etiladi. Bu – pediatr, tor sohadagi tibbiyot xodimlari, pedagog, psixolog hamda defektologlarning o‘zaro hamkorligida yondashish deganidir. Biroq bunday yondashuv hali amaliyotda yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli ushbu muammoni hal etish faqat ota-onalarning zimmasida qolib ketmoqda.[4]

G‘arb mamlakatlarida autizm kasalligi bilan og‘rigan insonlarning ta’limi, tarbiyasi hamda moslashuvi muammosiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud.

Ko‘pincha chet el mutaxassislarning yondashuvi har bir insonning shubhasiz, o‘zicha takrorlanmas va noyob inson ekanligini tan olish zaruriyatiga asoslanadi. Shuning uchun e’tiborni kamchiliklarni “tuzatish”ga emas, balki insonlar uchun alohida, ularning o‘zligini saqlab qolgan holda erkin yashay olishi uchun sharoit yaratishga qaratishga lozimligi taklif qilinadi.

Bu maqsadda psixologik korreksion texnologiyalar majmuasini ishlab chiqib, mutaxassislar samaradorligi ilmiy nuqtai nazardan tasdiqlangan metodikalardan foydalanishga o‘rgatish zarurdir. Ushbu jarayonda chet el tajribasini inobatga olish juda muhimdir. Bizning mamlakatda mazkur muammoga nisbatan yondashuvni o‘zgartirish uchun “autizm” tashxisi mavjud bo‘lgan insonlarning davolanishi hamda reabilitatsiyasi sohasida muvaffaqiyatlarga erishgan mamlakatlar tajribasiga murojaat qilish zarurdir. Bunda shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘ini muassasalarida faoliyat yurituvchi pediatrlarni jalb etish ham maqsadga muvofiqdir.

Mutaxassislarini kasallikning dastlabki bosqichlarida aniqlay olish hamda bolani tor soha mutaxassislarining alohida e’tiboriga yo‘naltira bilish bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishlari uchun ularni umumiyl tashxis bilan bir qatorda, ilk differensial tashxis tizimi assoslariiga

o'rgatish zarur. Jamoatchilikning autizm haqidagi xabardorligini oshirish bilan bog'liq tashviqot ishini yo'lga qo'yish ham juda muhimdir.

Hayotimizda shunday xolatlarga ham duch kelamizki, ba'zi ota-onalar "noodatiy" tarzda ulg'ayayotgan farzandlaridan uyaladilar, sababi esa mamlakatdagi jamoatchilikning o'zi ularni to'g'ri qabul qilmaydi. Eng asosiy muammo shundaki, o'z farzandlarini boshqa tengdosh bolalarga o'xshamasligini payqagan ota-onalar bezovta bo'lib, ularni "berkitish"ga urinadilar, natijada esa o'zlarini ham jamiyatdan ajralib qoladilar.

Xulosa va tavsiyalar. Birinchi navbatda e'tiborni shu muammoga qaratishdan boshlash zarur: ota-onalar o'z farzandlaridagi muammodan uyalmasliklari, bu muammo haqida gapirishdan qo'rmasliklari uchun nima lozim bo'lsa, shunga javob beruvchi sharoitlarni yaratishlari joiz. Buning uchun esa birinchi navbatda, alohida ehtiyojli insonlar haqidagi jamiyatda mavjud bo'lgan qarashlar, stereotip munosabatlarni o'zgartirish kerak. Quyidagi terapevtik yo'naliishlarni autizm bolalar bilan olib boriladigan reabilitatsion usullaridan foydalanishni tavsiya qilamiz.

1. **Hissiy integratsiya** (ART terapiyasi, sensorli integratsiya, delfin terapiyasi orqali idroknii rivojlantirish);

2. **ABA-terapiya** (dinamikada xulq-atvorni tahlil qilish va olingen ma'lumotlar asosida terapevtik yordam ko'rsatish dasturini yaratish, to'g'ri o'zaro ta'sir qilish ko'nikmalarini o'rgatish);

3. **Bioakustik tuzatish** (real vaqtida bolaning EEG yordamida yaratilgan tovushlar va tovush komplekslari yordamida sensorli ta'sirga asoslangan apparatli dasturiy tuzatish);

4. **Sensorli massaj** (taktil analizator orqali bolaning hissiy sohasini davolash). Ko'pgina autizmli bolalarda motoric xatti-xarakat ko'nikmalarining rivojlanishi kechikadi. Ba'zilarida esa mushaklarning rivojlanishi ham sust bo'ladi.

Jismoniy terapiya kuch, chidamlilik, muvofiglashtirish va asosiy sport mahoratini rivojlantirishi mumkin.

5. **Nutq terapiyasi** (sensorli logotip massaji, nutq terapiyasi darslari); Autizmli yoki, barcha odamlarda nutq va til muammolar kuzatilishi mumkin. Ba'zida bu muammolar autizm bolalarda ko'proq uchraydi. Chunki, autizm bolalar butunlay yoki qisman nutqni kam ishlatadi yoki umuman ishlatmaydi. Ko'pincha bunday muammolar artikulyatsiya yoki grammatika bilan bog'liq emas, balki "nutq pragmatikasi" (ijtimoiy munosabatlarni yaratish uchun nutqdan foydalanish) bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Nutq terapiyasidan foydalanish autizmli odamlar uchun foydalidir.

6. **Neyropsixologik tuzatish** (interhemisferik o'zaro ta'sirni, fazoviy yo'naltirishni, miyaning analistik va sintetik funktsiyalarini tuzatish terapiyasi);

7. **Tibbiy muassasalarga yuborish** (qo'shimcha terapevtik yordam)

8. **Mehnat terapiyasi yoki** kasbiy terapiyada asosiy e'tibor kundalik hayot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Autizmli bolalarda qobiliyatlar buzilganligi sababli, bu turdag'i terapiya ular uchun katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Terapevtlar tomonidan, sensorli integratsiyani qo'llash autistik odamlarga tovush, yorug'lik yoki teginish sezgirligini engishga yordam beradigan texnologiya sifatida qo'llaniladi.

9. **Ijtimoiy ko'nikmalar terapiyasi.** Autizmning asosiy muammolaridan biri bu ijtimoiy va muloqot qobiliyatlarining etishmasligi. Autizmli ko'plab bolalar suhbatni davom ettirish, yangi do'st bilan bog'lanish yoki o'yin maydonchasida o'zini tutish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishlari kerak. Ijtimoiy ko'nikmalar terapevtlari autizmli bola va ularning tengdoshlari o'rtaida ijtimoiy aloqalarni yaratish va osonlashtirishga yordam beradi.

10. O'yin terapiyasi. Bu qanchalik g'alati tuyulmasin, autizmli bolalar o'ynashni o'rganishda yordamga muhtoj. Bundan tashqari, o'yin nutq, muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish uchun vosita sifatida ham xizmat qilishi mumkin. O'yin terapevtlari Floortime yoki Play Project kabi maxsus terapevtik usullarda o'qitilishi mumkin yoki ular nutq, kasbiy yoki jismoniy terapiyaga o'yin terapiyasini kiritishlari mumkin.

11. **Xulq-atvor terapiyasi.** Autizmli bolalar ko'pincha umidsizlikka duch kelishadi. Ular atrofidagilarni noto'g'ri tushunishadi, o'z ehtiyojlarini yetkazishda qiyinchiliklarga duch

178 kelishadi, tovush, yorug'lik va teginishga yuqori sezuvchanlikdan aziyat chekishadi va hokazo. Buning ajablanarli joyi yo'q, ba'zida ular istalmagan xatti-harakatlarni namoyon qiladilar. Xulq-atvor terapevtlari salbiy xatti-harakatlarning orqasida nima borligini aniqlashga o'rgatiladi va bolaning xatti-harakatlarini yaxshilaydigan atrof-muhit va kundalik tartibni o'zgartirishni tavsiya qiladi.

12. **Rivojlanish terapiysi.** Floortime terapiysi bolaning individual qiziqishlari, kuchli tomonlari va rivojlanish darajasiga asoslanadi. Rivojlantiruvchi terapiyaning maqsadi hissiy, ijtimoiy va intellektual qobiliyatlarni oshirishdir. Rivojlanish terapiyasi ko'pincha xulq-atvor terapiyasiga qarama-qarshi qo'yiladi, bu asosan poyabzal bog'ichlarini bog'lash, tishlarni tozalash va hokazo kabi o'ziga xos ko'nikmalarini o'rgatish uchun ishlatiladi.

13. **Vizual terapiya.** Ko'p autizmli odamlar vizual tarzda o'ylashadi. Ulardan ba'zilari rasmga asoslangan aloqa tizimlari bilan juda yaxshi o'zaro ta'sir qiladi (Video modellashtirish, video o'yinlar va elektron aloqa tizimlari ham autizmli odamlarning aloqa o'rnatish uchun kuchli vizual qobiliyatlaridan foydalanadi).

14. **Biomedikal muolajalar.** Biotibbiyot terapiyasi farmatsevtika yoki maxsus parhezlar, qo'shimchalar va muqobil davolash usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu protseduralarning hech biri Oziq-ovqat va farmatsevtika idorasi yoki kasalliklarni nazorat qilish markazi tomonidan tasdiqlanmagan, ammo bu usullardan ijobiy natijalarga ko'plab misollar mavjud.

Agar siz ushbu turdagи muolajalardan foydalanishga qaror qilsangiz, avvalo farzandingizning terapevti kengash tomonidan tasdiqlangan shifokor va autizm sohasidagi mutaxassis ekanligiga ishonch hosil qiling. [5]

Autizm bola bilan ishlaydigan mutaxassislarga quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya qilinadi;

- bolaga ma'lum alomatlardan xalos bo'lishga va o'zaro munosabat va o'rganish ko'nikmalarini egallahsga yordam berish, shuningdek, uni hissiy holatini yengishga o'rgatish;
- autizmli bola bilan noto'g'ri munosabatda bo'lishning oilaviy stereotiplarini yengish. autizmli bolalarning ota-onalariga maslahat berish va individual terapiya dasturini yaratish, mahorat darslari, autizmni tuzatish sohasidagi yetakchi mutaxassislar ishtirokida seminarlar va butun oila uchun intensiv kurslar o'tkazish.

Reabilitatsion ishlarning to'g'ri va tizimli tashkil qilish bolalardagi tashqi dunyo bilan ijtimoiy o'zaro munosabatlarni normallashtirishga, qo'rquv va tashvish kabi g'ayritabiyy his-tuyg'ularini kamaytirishga, oila va do'stlar bilan muloqotni yaxshilashga, o'ziga nisbatan adekvat, ijobiy munosabatni shakllantirishga katta xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1.Беттельхейм Б. Пустая крепость: Детский аутизм и рождение «Я». - СПб: Академический проект, 2004. - 784 с.

2.Nurkeldiyeva D.A., Chicherina YA.E. Ilk maktabgacha va mакtab yoshidagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopediya tekshirish. T.: Yangi asr avlodи, 2007.

3.<https://encyclopedia.autism.help/persons/suhareva-grunya-efimovna>

4.<https://psyclinic-center.ru/articles/osnovy-prikladnogo-analiza-povedeniya-detey-autistov-i-osnovy-nauki-o-povedenii>

5.Карвасарский Б.Д. Психотерапия. - М.: Медицина, 1985. - 304 с.